



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSIQA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Odil G'aybullaevich Yunusov

Musiqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Xayrullaeva Xumora Alisher qizi

Musiqa ta'limi 2- kurs talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: maqolada o'quvchilarning musiqiy savodxonligini shakllantirishda mantiqiy fikrlashga o'rgatishning ahamiyati, boshlang'ich sinflarda musiqiy savodxonlik me'yorlari va uni o'zlashtirish darajasiga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, pedagogik boshqaruv, musiqiy savodxonlik, musiqiy bilim va ko'nikma, umumiy musiqi ta'limi, uslub, musiqiy- ma'rifiy faoliyat, nota yozuvi, musiqiy ehtiyoj, musiqi idroki, milliy cholg'ular, yakkaxonlik va jo'rnavoqlik, musiqiy savodxonlik kompetensiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PK-3391-sonli Qarori qabul qilinib, ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi ta'kidlab o'tilgan edi. Shu bois, milliy maqom san'ati namoyandalari, targ'ibotchilari oldiga "Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish" vazifasi qo'yildi.

Bu esa ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi hamda pedagogik faoliyatni maqsadli amalga oshirishga undayli. Endilikda asosiy maqsad - o'quvchi faqat egallangan bilim va ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish bilan emas, balki undan mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishi va hayoti davomidagi turli ijtimoiy munosabatlarda oqilona foydalana olishi joiz.

2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori bilan Musiqi madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti boshlang'ich ta'limning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarda musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirishdan iboratligini e'tirof etdi. Umumta'lim maktablari musiqi madaniyati o'quv dasturiga taalluqli musiqi savodi malakalari shu darajada mustahkam o'zlashtirilishi kerakki, o'quvchilar



ongi va shuurida uzoq vaqt saqlanib qolsin, ular mavjud musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalardan kundalik faoliyatda qo'llay olishsin.

Shu bois, fan o'qituvchilari mas'uliyatni chuqurroq his qilgan holda qunt va sabr bilan ishlab, o'quvchilarga puxta boshlang'ich musiqiy saboq bera olishsa-gina, ularda musiqiy madaniyatning asoslarini tarbiyalash oson bo'ladi.

Viloyat maktablarida yosh mutaxassis o'qituvchilarning musiqa madaniyati fani darslarini kuzatish, musiqiy faoliyatlarni tashkil etish, pedagogik boshqarish shuningdek, bo'lajak mutaxassislarining nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirganlik darajasining tahlillari shu narsani ko'rsatadiki, ba'zan haftaning bir soatlik darsning o'ziga ko'p musiqiy faoliyatlarni amalga oshirilishi oqibatida faoliyatlarning asosi bo'lmish musiqa savodxonligi nazariyashtirilishi, musiqiy atamalarga oid qoida hamda ta'riflarning quruq yodlatilishi, o'quvchilarda boshlang'ich musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirishda mantiqiy fikrlashga o'rgatishga e'tibor berilmasligi oqibatida o'quvchilarga tushunarsiz va qiziqarsiz bo'lib qoladi.

M. Sharipov, D. Fayzixo'jaevaning ta'rificha, kelib chikishiga ko'ra arabcha bo'lgan "mantiq" (grekcha logika-logos) atamasi "fikr", "so'z", "akl", "qonuniyat" kabi ma'nolarga ega. Uning ko'p ma'noqligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o'z aksini topadi. Xususan, mantiq so'zi, birinchidan, ob'ektiv olam konuniyatlarini (masalan, "ob'ektiv mantiq", "narsalar mantig'i" kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va tarakkiyotini shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi alokadorlikni xarakterlaydigan qonun-koidalar yigindisini (masalan, "sub'ektiv mantiq" iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va konunlarini o'rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Musiqiy savodxonlik jarayonining asosini va oxirgi maksadini amaliyot, ya'ni musiqiy faoliyat tashkil etadi. Barcha hollarda bilish o'quvchining musiqiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog'lik bo'lgan, uning musiqiy ehtiyojini qondirishi mumkin bo'lgan musiqiy asarlarni tushunib yetishga bo'ysundirilgan bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarga musiqiy savodxonlikni shakllantirar ekan, o'z oldiga ta'limiy maksadni ko'yadi. Ular o'rganilishi lozim bo'lgan musiqiy bilimlar doirasi, ta'lim shakli va metodlarini belgilab beradi. Musiqani idrok etish- murakkab, amalga oshadigan jarayondir.

Kuzatuv hamda tajribalardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar musiqa madaniyati darsligi asosida ba'zi tavsiyalarni keltiramiz.

1-sinfda o'quvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olishi, doyra va nog'ora milliy cholg'ularni biri-biridan farqlashi, tovushlarni baland-pastligini idrok etishi, butun nota, yarim nota, chorak nota va nimchorak nota shakli hamda cho'zimini bilishi, skripka kaliti, uning nota yo'lidagi joylashuvini bilishi, shoir, kompozitor, xonanda va sozanda kasbiy faoliyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari, yetti tovush nomi, ularning ketma-ketligida kuylay olishi kabi musiqiy savodxonlik kompetensiyalarini egallashi ko'zda tutilgan.



2- sinfda yakkaxonlik va jo'rnavezlik ijro turini bilishi, takt chizig'ining nota yo'liga ifodalanishi qoidalarini, tonika, takt chizig'i, reprizani farqlay olishi, major va minor tovushqatori haqida tushunchalarga ega bo'lishi lozim.

3-sinfda esa o'quvchilar ikki chorakli va uch chorakli o'lchov, dirijyorlik harakatlarini bajara olishi, pauzalarni bir-biridan farqlay olishi, ton va yarim ton tushunchalari, dinamik belgilarni bilishi, major va minor uch tovushligi hamda tovushqatorini nota yozuviga qarab kuylay olishi, va ularni lad ohangiga qarab ajrata olishi, kuylanadigan qo'shiqlarning ohangiga qarab aniqlay olishi, alteratsiya belgilari (diez, bemol, bekar) ni bilishi nazarda tutilgan.

4-sinfda o'quvchilar qo'shiq haqida tushunchaga ega bo'lishi, oddiy musiqa shakllarini bilishi, band shaklini farqlay olishi, o'zbek xalq cholg'ularidan torli, damli va zarbli sozlarni bir-biridan farqlashi, xalq raqslarini farqini, berilgan kuy parchalarida notalarni nomlarini o'qiy olishi, sol major tonligi tushunchasiga ega bo'lishi, berilgan nota yo'liga takt o'lchoviga mos nota tayoqchalarini qo'ya olishi kabi kompetensiyalarni shakllantirish vazifa etib qo'yilgan.

O'qituvchi o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarda aktivligini oshirish, ularni mashg'ulotda ommaviy jalb etish orqali musiqiy savodxonlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga erishmog'i lozim.

Boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limi mazmuni o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ular faoliyatini aktivlashtirish, bosqichlararo o'zaro bog'liqlikka erishib, dars yaxlitligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Muhim jihat shundaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonlik kompetensiyasini shakllantirishda oddiydan-murakkabga tamoyili asosida ularda mantiqiy fikrlashga o'rgatish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES:

1. Axmedov, B. A. (2021). Ta'limda axborot texnologiyalari fanining modullarini o'qitishda klasterli-innovatsion texnologiyalardan foydalanish tamoyillari. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 441.
2. Akhmedov, B. A. (2023). Improvement of the digital economy and its significance in higher education in tashkent region. Uzbek Scholar Journal, 12, 18-21.
3. Akhmedov, B. A. (2023). Innovative pedagogical technologies in the modern educational system. World Bulletin of Social Sciences, 19, 107-112.
4. Akhmedov, B. A. (2022). Use of Information Technologies in The Development of Writing and Speech Skills. Uzbek Scholar Journal, 9, 153-159.
5. Akhmedov, B. A. (2022). Psychological and pedagogical possibilities of forming tolerance in future teachers. Uzbek Scholar Journal, 11, 289-295.
6. Akhmedov, B. A. (2023). Methods to increase algorithmic thinking in primary education. Uzbek Scholar Journal, 12, 22-26.



7. Axmedov, B. A. (2023). Integrallashgan ta'limda talabalar bilimlarini virtual test nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqish konsepsiyasi. PEDAGOG, 1(5), 86-92.
8. Akhmedov, B. A. (2022). Principles of Developing the Professional Competence of Future Teachers on the basis of a Cluster Approach. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 760-770.
9. Seitniyazov, K. M. (2023). Some traditional names in Toponymics. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 842-845.
10. Maxmudova, D. M., & Mirxalilova, N. A. (2021). TALABALARDA MATEMATIK SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. Scientific progress, 2(4), 476-480.
11. Abdujabbarova, F. A. (2020). Boshlang'ich ta'limda PRILS- xalqaro baholash dasturiga tayyorlanish usullari. Maktab va hayot, 1(1), 27-28.
12. Abdujabbarova, F. A. (2020). The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons. Journal of Critical Reviews, 7(5), 1637-1641.
13. Abdujabbarova, F. A. (2020). Teaching Uzbek Language and Literature Based on Interactive Technologies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 20(2), 2555-2558.
14. Abdujabbarova, F. A. (2020). Historical and cultural background of typological study Russian and Uzbek literature. Journal of Critical Reviews, 7(5), 2555-2558.